

## O'SMIR YOSHDAGI BOLALARDA PARODONTITNI KECHISHI VA DAVOLASH USULLARI

*Xo'jamberdiev Bobirjon Sobirjonovich*

*Bolalar stomatologiyasi kafedrasи*

*Andijon davlat tibbiyot instituti*

**Annotatsiya.** Stomatologik kasalliklar orasida og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati va lab qizil hoshiyasi kavalliklari alohida o‘rin tutadi. Tish kasalliklarini bartaraf etishda erishilgan sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, amalda shilliq qavat kasalliklari hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu ularning keng tarqalganligi, inson organizmiga salbiy ta’sirining turlicha bo‘lishi va klinik ko‘rinishlarning aniq polimorfizmi bilan bog‘liq bo‘lib, ularni tekshirish qulayligiga qaramay, og‘iz bo‘shlig‘i va lablar kasalliklari soni o‘sishda davom etmoqda.

**Kalit so‘zlar:** periodontit, periodont, bakterial periodontal topopatogenlar, periodontal patogen mikroorganizmlar, antibakterial terapiya.

**Dolzarbli**gi Organizmda har qanday somatik kasalliklarning mavjudligi stomatologik kasalliklar rivojlanishiga olib keladi[3]. Zamonaviy stomatologiyada tizimli kasalliklarning og‘iz bo‘shlig‘i a’zolarining holatiga ta’sirini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda[2]. Bu masala og‘ir kechuvchi kasalliklar, shu jumladan o‘smir bemorlarda ham o‘ta muhim hisoblanadi. O‘smir bemorlar og‘iz bo‘shlig‘ida xarakterli o‘zgarishlar, parodont kasalliklari rivojlanishida muhim bog‘liqlik aniqlangan. Shu munosabat bilan ushbu bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i holatini baholash va profilaktika choralarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Jahon miqyosida qator ilmiy izlanishlar og‘iz bo‘shlig‘i holatini o‘rganishga qaratilgan. Bunda og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarining oldini olish, tashhislash va davolashni takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda[4]. Shu bilan bog‘liq holda og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari kelib chiqishining o‘ziga xosligini aniqlash, tizimli va mahalliy metabolik, immunologik jarayonlarning

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

buzilishini hisobga olgan holda kasalliklar rivojlanishi sabablari asoslanmoqda, tashhislash va davolash algoritmi, shuningdek remissiya muddatini uzaytiruvchi chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Ammo, o'smir bemorlarda og'iz bo'shlig'i kasalliklarini erta aniqlash, davolash va oldini olishda xalq tabobatida ishlataladigan usullar masalalari yetarlicha yoritib berilmagan[2]. Ushbu jarayonda kasallikning keng tarqalganligi, davolash samaradorligining pastligi hamda asoratlar qolish xavfining mavjudligini inobatga olib, ushbu patologiya kuzatilgan o'smirlarda og'iz bo'shlig'i kasalliklarini tashhislash, davolash va oldini olishni takomillashtirish zarurati oshgan[5].

**Tadqiqot maqsadi.** O'smir yoshdagi bolalarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati patologiyasini erta aniqlash, oldini olish kompleks davolashda fitopreparatlar samaradorligiga baho berishdan iborat.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Andijon viloyat poliklinikalarida parodontit kasalligi bilan davolangan, nazoratda turgan o'smir yoshdagi 120 nafar bemor jalb qilinadi. Nazorat guruhiga asosiy guruh bilan o'xhash bo'lgan 40 nafar bemor kiritilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida tibbiy hujjatlar, tibbiy qurilmalarning ma'lumotlari, tish-jag' sohasi yumshoq va qattiq to'qimalari.

Tadqiqot muxokamasi. O'smir yoshdagi bolalarda og'iz bo'shlig'i kasalliklarining (stomatologik kasalliklar) uchrash darajasi, tarqalishi va o'ziga xos klinik kechishini o'rghanish va baholandi.

O'smir yoshdagi bolalarda og'iz bo'shlig'i gigienasi va og'iz bo'shlig'i shillik kavati holatini aniqlandi.

Stomatologik va laborator tekshirish usullari yordamida og'iz suyuqligi tarkibidagi biokimyoviy o'zgarishlarni o'rghanish, uning tish va og'iz bo'shlig'i shillik kavatiga ta'sirini aniqlandi.

O'zgarishlarning og'iz bo'shlig'i kasalliklari shakllanishi bilan bog'liqligini o'rGANildi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

O'smir yoshdagi bolalarda fitopreparatlar bilan parodontal cho'ntaklarni va og'iz bo'shlig'i shilliq qavatini kalampirmunchok damlamasini mahalliy qo'llash yordamida kompleks davolash samaradorligiga baho berildi.

Ushbu kontingentga mansub bemorlarning og'iz bo'shlig'i gigienasini bilish darajasini aniqlash va ular uchun profilaktik davolash yo'nalishida individual yondashuvni ishlab chiqildi.

**Xulosa.** Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimizda tibbiyot sohasini jahon standartlari darajasida rivojlantirish doirasida stomatologiyasiga, shu jumladan, bemorlarda og'iz bo'shlig'i kasalliklarini erta tashhislash, asoratlar sonini kamaytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Еловикова, Т. М. Клинические проявления пародонтального синдрома при циклической нейтропении / Т. М. Еловикова, Л. В. Уварова // Проблемы стоматологии. - 2013. - № 1. - С. 16-19.
2. Зорина, О. А. Антимикробная эффективность системного применения антибиотиков разных групп в комплексном лечении пациентов с хроническим генерализованным пародонтитом / О. А. Зорина, И. С. Беркутова, А. А. Басова // Стоматология. - 2014. - № 5. - С. 13-18.
3. Орехова Л. Ю., Александрова А.А., Мусаева Р.С. [и др.] Особенности стоматологического статуса у пациентов с сахарным диабетом и беременных женщин. Меры профилактики стоматологических заболеваний у данных групп пациентов (обзор литературы) // Пародонтология. - 2014. - № 4 (73). - С. 18-25.
4. Ardila, C. M. Clinical Factors Influencing the Efficacy of Systemic Moxifloxacin in the Therapy of Patients With Generalized Aggressive Periodontitis: A Multilevel Analysis From a Clinical Trial / C. M. Ardila, I. C. Guzman // Glob J Health Sci. - 2015. - Vol. 8, № 3.
5. Krayer, J. W. Non-surgical chemotherapeutic treatment strategies for the management of periodontal diseases / J. W. Krayer, R. S. Leite, K. L. Kirkwood // Dent Clin North Am. - 2010. - Vol. 54, № 1.